



TA'LIM TIZIMIDA IJTIMOYIY-MADANIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI VA KOMPETENTLIK YONDASHUVI

Jo'rayev V.T.

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Tayanch so'zlar: ijtimoiy-madaniy kompetensiya, kompetentlik, uzluksiz ta'lim, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiylashuv, madaniyat, pedagogik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, metakasbiy ko'nikmalar, qaror qabul qilish, muloqot, hamkorlik, ijodiy rivojlanish, ta'lim tizimi, kompetensiyalar majmuasi.

Ключевые слова: социокультурная компетентность, компетентность, непрерывное образование, развитие личности, социализация, культура, педагогический подход, профессиональная подготовка, метапрофессиональные навыки, принятие решений, общение, сотрудничество, творческое развитие, образовательная система, совокупность компетенций.

Key words: socio-cultural competence, competence, continuous education, personal development, socialization, culture, pedagogical approach, professional training, metaprofessional skills, decision-making, communication, cooperation, creative development, educational system, set of competencies.

Резюме:

Mazkur maqolada ta'lim tizimida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati va zamonaviy yondashuvlar tahlil qilingan. Ta'limning uzluksiz tizimi, shaxsiy rivojlanish va madaniyatga asoslangan ijtimoiylashuv jarayonlari ko'rib chiqiladi. "Ijtimoiy-madaniy kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalari falsafiy, pedagogik va sotsiologik nuqtai nazardan o'rganilib, shaxsning kasbiy tayyorgarligi va metakasbiy talablari keng qamrovli ko'nikmalar majmuasini o'z ichiga olishi ta'kidlangan. Maqolada shaxsning ijodiy rivojlanishi, qaror qabul qilish, muloqot va hamkorlik qobiliyatlari kabi elementlar zamonaviy ta'limning muhim jihatlari sifatida ko'rsatilgan. Kompetensiya va kompetentlik tushunchalarining farqlanishi va ta'limda qo'llanilishi ham muhokama qilinadi.

Резюме:

В данной статье анализируется важность формирования социокультурных компетенций и современных подходов в системе образования. Рассмотрены непрерывная система образования, развития личности и процессы культурной социализации. Понятия «социокультурная компетентность» и «компетенция» изучаются с философской, педагогической и социологической точки зрения, при этом подчеркивается, что профессиональная подготовка и метапрофессиональные потребности человека включают комплексный набор умений и навыков. В статье в качестве важных аспектов современного образования показаны такие элементы, как творческое развитие личности, навыки принятия решений, общения и сотрудничества.



Также обсуждается разграничение понятий компетентности и компетентности и их использование в образовании.

Summary:

This article analyzes the importance of forming social and cultural competencies and modern approaches in the educational system. The continuous system of education, personal development and culture-based socialization processes are considered. The concepts of "socio-cultural competence" and "competence" are studied from a philosophical, pedagogical and sociological point of view, and it is emphasized that professional training and metaprofessional requirements of a person include a comprehensive set of skills. In the article, elements such as creative development of a person, decision-making, communication and cooperation skills are shown as important aspects of modern education. The distinction between the concepts of competence and competence and their use in education is also discussed.

Inson va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar, shuningdek, insonning jamiyatda o'z o'rnini topish jarayoni, ijtimoiylashuv va madaniyat tushunchalari orqali ifodalanadi. Ijtimoiylashuv insonning jamiyatda hayot kechirish imkoniyatini yaratadigan jarayon sifatida, madaniyat esa insonning bilimlari, qadriyatlari va me'yorlari orqali shakllangan tajribaning to'planishi va uzatilishi sifatida ta'riflanadi. Ijtimoiy va madaniy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi, jamiyatning rivojlanishi bilan bir qatorda, shaxsning ijtimoiy va kasbiy faoliyatini belgilashda ham katta ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kompetensiyalar va kompetentlik tushunchalari ham bugungi zamonning muhim masalalaridan biri bo'lib, shaxsning ma'lum sohada muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni o'z ichiga oladi.

O'zbek tilining izohli lug'atida ijtimoiy so'ziga "Inson va jamiyat xayotiga oid (ijtimoiy tuzum); jamiyatdagi tabaqa, sinf va shu kabiga mansublikni belgilovchi (ijtimoiy kelib chiqish); jamiyat bilan bog'langan, jamiyatga, jamoatchilikka oid (ijtimoiy harakat); jamiyatning, jamoatchilikning ehtiyojlari uchun ixtiyoriy (evazsiz) xizmat etuvchi (ijtimoiy ta'minot); jamoatchilikka tegishli, jamoatchilik o'rtasidagi (ijtimoiy munosabatlar)" deb ta'riflar berilgan. Rus tilining izohli lug'atida esa "ijtimoiy – jamiyatga oid; ijtimoiy muhit. Ijtimoiy maqom. Ijtimoiy (adv.) xavfli. Ijtimoiy ta'minot (fuqarolarni keksalikda, shuningdek kasallik yoki nogironlik holatida moddiy qo'llab-quvvatlashning davlat tizimi). Ijtimoiy soha singari umumiy bo'lgan odamlar hayoti va ularning jamiyatdagi munosabatlari bilan bog'liq tushuncha" deb ta'rif berilgan.

Falsafada ijtimoiylashuv tushunchasi mavjud. Bu tushunchaga nisbatan "inson tomonidan jamiyatda hayot kechirish imkonini beruvchi bilimlar, normalar va qadriyatlar tizimining o'zlashtirilishi jarayoni" deya ta'rif berilgan. Ijtimoiylashuv – inson tomonidan kishilik madaniyatining, xususan, milliy madaniyat an'alarining o'zlashtirilib borishi jarayoni sifatida ham talqin

qilinishi mumkin. Madaniy muhitga moslashish jarayoni sifatida ijtimoiylashuv insonning butun umri bo‘yi davom etadi. Ijtimoiylashuv va madaniyatni o‘zaro ajratib bo‘lmas ekan, shu o‘rinda madaniyat tushunchasiga ham izoh berib o‘tish lozim.

"Madaniyat" tushunchasi o‘z mazmuni va funksional jihatlariga ko‘ra ko‘p qirrali tushuncha hisoblanadi. Kundalik hayotda "madaniyat" atamasi inson faoliyatining uslubi va jamiyatning rivojlanish darajasini ifodalovchi omil sifatida qo‘llaniladi. Biroq, ushbu tushunchaning asl mohiyatiga chuqurroq e‘tibor qaratisa, "madaniyat" so‘zi tabiat, jamiyat va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni aniqlovchi turli xil nazariy qarashlar, g‘oyalar, tushunchalar va tasavvurlar bilan chambarchas bog‘liq ekanligini anglash mumkin.

S.I.Ojegov "madaniyat" tushunchasini "insonlarning ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma‘naviy yutuqlarining majmuasi... biror narsaning yuqori darajasi, ko‘nikmalarni rivojlantirishning yuqori darajasi (ovoz madaniyati, ishlab chiqarish madaniyati)" deb ta‘riflaydi. Bundan kelib chiqiladigan bo‘lsa, rus tilida so‘zlashovchilar nuqtai nazaridan "madaniyatli" so‘zi - "yuqori darajada rivojlangan yoki unga mos keluvchi; ma‘rifiy va intellektual faoliyatga oid" ma‘nolarni anglatadi.

Falsafa qomusiy lug‘atida madaniyat tushunchasini turli davrlarda turlicha shakllanganligi, ma‘noning kengayib borish jarayoni aynan berilgan. Unda ko‘rsatilishicha "Madaniyat – tabiat va o‘zaro munosabatlarda aks etadigan inson faoliyatining o‘ziga xos usuli. Madaniyat alohida individning hayot faoliyati (shaxsiy madaniyat), ijtimoiy guruhning yoki jamiyatning hayot faoliyati usulini aks ettiradi. Dastlab madaniyat tushunchasi insonning tabiatga maqsadga muvofiq ta‘siri (yerni ishlash va h.k.), hamda insonning o‘zini tarbiyalash va o‘qitish ma‘nolarini ifodalagan. Keyinchalik madaniyat tushunchasi orqali sivilizatsiya bilan bog‘liq mazmun tushunila boshlandi. Uyg‘onish davrida madaniyat yetukligi deganda insonning gumanistik g‘oyalari, keyinroq ma‘rifatchilik g‘oyalari muvofiqligini tushuna boshladilar. Jamiyatdan tashqarida madaniyat mavjud emas. Ijtimoiy munosabatlardagi har qanday o‘zgarish madaniyatga ta‘sir etadi. Madaniyat bu munosabatlarning qanday natijalarga olib kelishidan xabar beradi. Shu boisdan madaniyat nafaqat o‘tmishga yoki bugunga, shu bilan birga kelajakka munosabatdir. Madaniyat inson faoliyatining ham mahsuli, ham sifat ko‘rsatkichi. Insoniyat o‘zi ham pirovard natijada madaniyat mahsulidir. Madaniy muhit qanday bo‘lsa inson ham shunday shakllanadi". Bundan ko‘rinib turibdiki, inson tug‘ilgan paytidan boshlab madaniyat dunyosiga kirib boradi. Ushbu dunyoda ulkan umuminsoniy tajriba yig‘iladi va saqlanadi. Inson, madaniyatning subyekti sifatida, o‘z



faoliyati, harakatlari, fikrlari va his-tuyg'ularida umuminsoniy ruhiy-axloqiy qadriyatlarga tayanadi. D.I.Feldshteyn bolalik davrida insonning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi muammolarini o'rganar ekan, ijodiy individuallik rivojlanadigan soha – bu madaniyat degan xulosaga keladi. Chunki u bilan tanishish, uning qadriyatlarini ommaviylashtirish, eng muhimi, shaxsning ijtimoiy-madaniy dunyoda o'z “men”ini ijtimoiy, haqiqiy kashfiyotiga moslashtirishning muhim sharti sanaladi. Boshqacha qilib aytganda, madaniyat insonni oziqlantirib, uning shaxsiy vazifalarini belgilash uchun namuna beruvchi ontologik ildiz sifatida xizmat qiladi. Inson madaniyat doirasida ongli ravishda rivojlanadi, shu orqali uning faoliyati, muloqoti va dunyoqarashi shakllanadi. Yana bir tarafdin, madaniyat shaxsiy va ijtimoiy xulq-atvorni belgilaydigan, bilish, amaliy va shaxsiy masalalarni hal qilish uchun asos bo'ladigan qadriyatlar tizimini aniqlaydi. Natijada, madaniyat insonlarni mazmunliroq, tartibliroq va individdan yuqori darajadagi mavjudotga aylantiradi.

I.A.Zimnayaning nuqtai nazariga ko'ra, madaniyatning fenomenologik mohiyati “... bu ijtimoiy jamoaga (etnos, millat, jamiyat) xos bo'lgan, matnlar, rivoyatlar, odatlar va an'analarda aks etgan va inson hamda jamiyatning mavjudlik mazmunini ta'minlovchi qadriyatlar, me'yorlar va ideallar majmuasidir. Ular odamlar tomonidan faol hayotiy faoliyat davomida va boshqalar bilan o'zaro aloqada o'zlashtiriladi va qo'llaniladi”.

Ushbu integratsiyalashgan ijtimoiy-shaxsiy-xulqiy fenomenni umumlashtirilgan ta'rifida, motivatsion-axloqiy va kognitiv komponentlarning yig'indisini ko'rib chiqish mumkin. Bu yerda kompetensiya - ma'lum bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun bilim, ko'nikma va shaxsiy sifatlarni qo'llash qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Kompetentlik esa ta'lim jarayonining natijasini ifodalaydi. Kompetentlik yondashuvi esa, ushbu fenomenning nazariy asosini tashkil etadi.

Hozirgi vaqtda “kompetentlik” va “kompetensiya” tushunchalarini aniq farqlash, ularni o'ziga xos jihatlarini to'g'ri anglash muhim masalalardan biridir. Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “kompetentlik” tushunchasi keng tarqalgan. Olimlar bu tushunchani turli nuqtai nazardan ko'rib chiqadilar. Edinburg universiteti professori, doktor Jon Raven kompetentlikni “ma'lum bir fan sohasidagi muayyan harakatni samarali bajarish uchun zarur bo'lgan o'ziga xos qobiliyat, shu jumladan, yuqori ixtisoslashgan, maxsus turdagi fan ko'nikmalari, fikrlash usullari, shuningdek, o'z harakatlari uchun javobgarlikni tushunish” deb ta'riflaydi.

Kompetentlik – bu bilim va amaliy inson faoliyati o‘rtasidagi munosabatlar sohasiga tegishli bo‘lgan toifadir. B.Y.Yelkonin ta’rifiga ko‘ra, kompetentlik – bu faoliyatga qo‘shilish paytida olingan shaxsning malaka xarakteristikasi.

K.J.Risqulovning fikriga ko‘ra, “kompetensiya” u yoki bu kasb egasiga zarur bo‘lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa hamda majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me’yorlar yig‘indisini anglatadi. Kompetentlik esa – shaxs amaliy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, kompetensiya me’yorlarini jamiyat talablaridan kelib chiqqan holda kreativlik asosida ish tajribasida namoyon etish mahoratidir. Kompetentlikning asosiy mezoni samarali faoliyat, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash bilan belgilanadi.

A.V.Xutorskiy “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalarini ajratib, quyidagi ta’riflarni taklif qiladi: “kompetensiya – bu subyektlar va jarayonlarning ma’lum bir doirasiga nisbatan o‘rnatilgan va ularga nisbatan yuqori sifatli ishlab chiqarish faoliyati uchun zarur bo‘lgan o‘zaro bog‘liq shaxs fazilatlarini (bilim, ko‘nikma, malaka, faoliyat usullari) to‘plami. Kompetentlik – bu shaxsning tegishli kompetensiyalarga ega bo‘lishi, egalik qilishi, shu jumladan, unga bo‘lgan shaxsiy munosabati va faoliyat predmeti”.

Bizning nuqtai nazarimizdan, kompetentlik yondashuvi shaxsga yo‘naltirilgan va faoliyatga asoslangan yondashuvlar bilan uyg‘unlashgan holda, zamonaviy texnologik tayyorgarlik tizimlarini ishlab chiqishda alohida samaradorlikka ega bo‘ladi. Ushbu yondashuv shaxs uchun muhim bo‘lgan bilim va ko‘nikmalar ustuvorligini ta’minlashda o‘z aksini topadi. Sotsiologik yondashuvdan kelib chiqib, kompetensiya kasbiy bo‘lmagan, ammo har bir mutaxassis uchun zarur bo‘lgan bir qator boshqa komponentlarni ham qamrab oladi. Bular, avvalo, qaror qabul qilish qobiliyati, faoliyatni amalga oshirishdagi mustaqillik, ijodiy yondashuv, ishni muvaffaqiyatli yakunlash, faoliyat natijalarini to‘g‘ri baholash va doimiy o‘rganish kabi shaxsiy sifatlarini o‘z ichiga oladi. Shuningdek, muloqot olib borish, hamkorlik qilish qobiliyati, kommunikativlik va fikrlashning moslashuvchanligi kabi ko‘nikmalar ham juda muhim hisoblanadi. Shu tariqa, shaxsning kasbiy tayyorgarligi bilan bir qatorda, mutaxassis uchun zarur bo‘lgan metakasbiy "qo‘shimcha" talablari shakllanadi. Ushbu holat keng qamrovli bilimlar, ko‘nikmalar, malaka, ijtimoiy faoliyat tajribasi va turli qobiliyatlarni o‘z ichiga oladi, bu esa shaxsga muayyan masalani hal qilishda yoki ma’lum bir faoliyatda yordam berish imkoniyatini yaratadi. Shu sababli, kompetent mutaxassis bo‘lish uchun umumiy va kasbiy kompetensiyalarni o‘z ichiga olgan kompetensiyalar majmuasini egallash zarurdir.



Bunday tushuncha kompetensiyalarni murakkab ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida tasavvur qilishga imkon beradi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, bir qator tadqiqotchilar ta'limning ijtimoiy-madaniy yo'nalishini kompetensiya emas, balki ijtimoiy-madaniy kompetentlik nuqtai nazaridan ko'rib chiqadilar. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "kompetensiya" va "kompetentlik" tushunchalarini talqin qilishning turli yondashuvlarini tahlil qilib, ushbu atamalarning mohiyatidan kelib chiqib, biz ijtimoiy-madaniy kompetensiya haqida gapirish mumkin deb hisobladik, chunki uning mavjudligining asosiy shakli ijtimoiy yo'naltirilgan faoliyatdir.

Ijtimoiylashuv va madaniyat bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lgan tushunchalar bo'lib, insonning jamiyatda shakllanishi va rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Kompetensiya va kompetentlik kabi tushunchalar esa shaxsning kasbiy va shaxsiy faoliyatini samarali tashkil etishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Shaxsning ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarini rivojlantirish, uning jamiyatdagi faoliyatini muvaffaqiyatli amalga oshirishiga yordam beradi. Kompetentlik yondashuvi shaxsning nafaqat kasbiy tayyorgarligini oshiradi, balki uning ijodiy va mustaqil faoliyat ko'rsatish qobiliyatlarini ham shakllantiradi. Shu sababli, bugungi kunda ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томлик. 2-том. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси" давлат илмий нашриёти, 2006. – Б.178.
2. Ожегова С. И. Словарь русского языка [https:// slovarozhegova. ru/word.php? wordid =30014](https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=30014)
3. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 148.
4. Ожегова С. И. Словарь русского языка [https:// slovarozhegova. ru/word.php? wordid =30014](https://slovarozhegova.ru/word.php?wordid=30014)
5. Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 230. (491)
6. Фельдштейн Д. Глубинные изменения детства и актуализация психолого-педагогических проблем развития образования // Образовательная социальная сеть (nsportal.ru)
7. Зимняя И. А. Общая культура и социально-профессиональная компетентность человека [Текст] / И. А. Зимняя // Высшее образование сегодня, 2005, № 11.–С. 14-20.
8. Begimov O. Nutqiy kompetensiya va kasbiy kompetensiya masalasi // Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 2024, № 4.2 – В. 58-62.
9. Равен Дж. Компетентность в современном обществе: выявление, развитие и реализация. – Москва: Когито-Центр, 2002. – 396 с.
10. Рисқулова К.Ж. Инглиз тили ўқитувчиси социолингвистик компетенцияси ва унинг ўзига хос хусусиятлари // Филология масалалари. – Тошкент, 2016. – 4-сон.
11. Хуторский А.В. Педагогическая инноватика: учебное пособие для студентов высших учебных заведений, обучающихся по педагогическим специальностям / А.В.Хуторский. – М.: Академия, 2010. - 255 с. Свердловская ОУНБ; ЕФ; Шифр 74; Авторский знак Х986; Инв. номер 2312083-ЕФ.